



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 198 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbanovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргулов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	



BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINING TARKIBIY-MEZONLI MODEL VA RIVOJLANGANLIK DARAJALARI

Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasini kasbiy-inklyuziv vazifalar bilan bog'liq holda operatsionallashtiruvchi tarkibiy-mezonli model ishlab chiqilgan. Nazariy tahlil, kompetensiyalarni xaritalash va pedagogik loyihalash asosida fuqarolik-huquqiy, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-ishtirokiy, raqamli-kommunikativ hamda reflektiv-professional komponentlar ajratildi. Har bir komponent "mazmun – funksiya – kuzatiladigan indikator – raqamli dalil" zanjiri orqali tavsiflandi. Boshlang'ich, bazaviy, faol-amaliy va tashabbuskor-transformativ darajalarning yagona deskriptorlari taklif qilindi. Baholashda bilim testi, vaziyatli yechim, keys va loyiha mahsuli, raqamli materialning foydalanish imkoniyati, hamkorlikdagi individual hissa, elektron portfolio hamda reflektiv dalillarni birlashtirish zarurligi asoslandi. Model faol fuqarolikni umumiy ma'naviy sifat yoki alohida raqamli ko'nikma emas, balki inson huquqlari, inklyuziv ishtirok va kasbiy javobgarlikni amaliy vaziyatda uyg'unlashtiradigan integrativ kompetensiya sifatida o'lchash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: bo'lajak maxsus pedagog, faol fuqarolik kompetensiyasi, kasbiy-inklyuziv faoliyat, komponent, mezon, indikator, rivojlanganlik darajasi, autentik baholash, raqamli dalil.

Abstract: The article develops a component-and-criteria model that operationalises active citizenship competence of pre-service special educators in relation to professional-inclusive tasks. Based on theoretical analysis, competence mapping, and pedagogical design, five components are distinguished: civic-legal, motivational-value, activity-participatory, digital-communicative, and reflective-professional. Each component is described through the chain "content – function – observable indicator – digital evidence." A unified four-level progression is proposed: initial, basic, active-practical, and initiative-transformative. The article substantiates a multi-evidence assessment system combining knowledge tests, situational judgement, case and project products, accessibility of digital materials, individual contribution to collaboration, electronic portfolio evidence, and professional reflection. The model makes it possible to assess active citizenship not as a general moral quality or an isolated digital skill, but as an integrated competence that coordinates human rights, inclusive participation, and professional responsibility in authentic situations.

Key words: pre-service special educator, active citizenship competence, professional-inclusive activity, component, criterion, indicator, developmental level, authentic assessment, digital evidence.

Аннотация: В статье разработана структурно-критериальная модель, операционализирующая компетенцию активного гражданства будущих специальных педагогов в связи с профессионально-инклюзивными задачами. На основе теоретического анализа, картирования компетенций и педагогического проектирования выделены гражданско-правовой, мотивационно-ценностный, деятельностно-участнический, цифровой-коммуникативный и рефлексивно-профессиональный компоненты. Каждый компонент описан через цепочку "содержание – функция – наблюдаемый индикатор – цифровое доказательство". Предложены единые дескрипторы начального, базового, активно-практического и инициативно-трансформативного уровней. Обоснована необходимость многодоказательного оценивания, объединяющего тест знаний, ситуационное решение, продукты кейса и проекта, доступность цифрового материала, индивидуальный вклад в сотрудничество, электронное портфолио и рефлексивные свидетельства.

Ключевые слова: будущий специальный педагог, активное гражданство, профессионально-инклюзивная деятельность, компонент, критерий, индикатор, уровень развития, аутентичное оценивание, цифровое доказательство.

KIRISH

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak maxsus pedagogni tayyorlash natijasi uning alohida fanlar bo'yicha bilimlari bilan cheklanmaydi. Mutaxassis ta'lim oluvchining huquq va qadr-qimmatini himoya qilishi, muhitdagi to'siqlarni aniqlashi, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda qaror qabul qilishi, ishonchli raqamli axborotdan foydalanishi, foydalanish imkoniyati ta'minlangan ta'lim mahsulotlarini yaratishi va o'z kasbiy harakatini dalillar asosida tahlil qilishi kerak. Mazkur vazifalar faol fuqarolik kompetensiyasini maxsus pedagog kasbiy tayyorgarligining tarkibiy natijasi sifatida o'rganishni talab etadi ^[1-8].

Faol fuqarolik kompetensiyasi faqat fuqarolik-huquqiy bilim yoki ijtimoiy tadbirda qatnashish ko'rsatkichi bilan o'lgansa, uning kasbiy mohiyati ochilmaydi. Talaba huquqiy normani tanlashi, lekin real vaziyatdagi kamsitish belgilarini ko'rmasligi; raqamli vositadan foydalanishi, lekin materialni ekran o'quvchi dasturiga moslashtirmasligi; loyiha guruhida qatnashishi, lekin qaror va natijaga individual hissasini asoslay olmasligi mumkin. Demak, baholash konstruktning bilim, qadriyat, faoliyat, kommunikatsiya va refleksiya qatlamlarini qamrab olishi zarur.

Kompetensiyani operatsionallashtirishning metodik sharti - umumiy tushunchani kuzatiladigan harakat va ishonchli dalillarga aylantirishdir. Bunda "biladi", "tushunadi", "anglaydi" kabi bevosita kuzatilmaydigan ifodalar o'rniga "vaziyatdagi huquq buzilishini aniqlaydi", "qarorni me'yoriy va axloqiy dalil bilan asoslaydi", "manfaatdor tomonlar rolini taqsimlaydi", "raqamli materialga alt-matn va subtitrlar qo'shadi", "teskari aloqa asosida mahsulotni qayta ishlaydi" kabi indikatorlar qo'llanadi.

Maqolaning maqsadi bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasi tarkibini besh komponent, mezon, kuzatiladigan indikator, raqamli dalil va to'rt rivojlanganlik darajasi asosida tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot nazariy-metodik va loyihaviy xarakterga ega bo'lib, yakunlangan pedagogik tajriba natijalarini da'vo qilmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Faol fuqarolik ta'limi bo'yicha xalqaro yondashuvlarda bilim, qadriyat, ko'nikma va harakatning birligi ustuvor. UNESCO global fuqarolik ta'limini kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvoriy sohalar orqali ifodalaydi ^[7].

Yevropa Kengashining demokratik madaniyat kompetensiyalari modeli qadriyatlar, munosabatlar, ko'nikmalar hamda bilim va tanqidiy tushunishni o'zaro bog'laydi ^[8].

Westheimer va Kahne fuqarolikning shaxsiy mas'uliyatli, ishtirokchi va adolatga yo'naltirilgan turlarini farqlab, ta'limdagi fuqarolik natijasi turli faoliyat mantig'iga ega ekanini ko'rsatadi ^[9].

Raqamli fuqarolik tadqiqotlarida mazkur tushuncha texnik kirish yoki xavfsizlik bilan chegaralanmaydi. Choi raqamli fuqarolikni etika, media-axborot savodxonligi, tanqidiy qarash va siyosiy-ijtimoiy faollik bilan bog'laydi ^[10, 11].

Jones va Mitchell onlayn hurmat hamda fuqarolik faolligini o'lgash zarurligini asoslaydi ^[12].

Bu yondashuvlar bo'lajak maxsus pedagog uchun manbani tekshirish, onlayn muhokamada dalil va etikani uyg'unlashtirish, maxfiylikni saqlash va raqamli kontentni turli ehtiyojlarga mos yaratishni kompetensiya tarkibiga kiritishga asos beradi.

Inklyuziv pedagogika bo'yicha tadqiqotlarda o'qituvchi ijtimoiy adolat va inklyuziya agenti sifatida talqin qilinadi ^[14-16].

Pantić va Florian pedagogning agentligi faqat individual e'tiqod emas, hamkorlik, institutsional sharoit va mas'uliyatli harakat orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi ^[14].

Florian va Spratt inklyuziv amaliyotni ayrim ta'lim oluvchilar uchun "qo'shimcha" yechim yaratish emas, barchaning ishtirokini kengaytirish sifatida izohlaydi ^[15]. Mazkur fikrlar faol fuqarolik komponentlarini maxsus pedagogning huquqiy, himoyaviy, kommunikativ va refleksiv vazifalari bilan bog'lashga imkon beradi.

Kompetensiyani baholash nazariyasi konstrukt, topshiriq, javob va talqin o'rtasidagi dalillar zanjirini talab qiladi ^[17, 18].

Formativ baholash va teskari aloqa bo'yicha tadqiqotlar talabning o'zini baholashi, mezonni tushunishi, fikr-mulohazani qabul qilishi va mahsulotni qayta ishlashi rivojlanishning muhim mexanizmlari ekanini ko'rsatadi ^[19, 20]. Elektron portfolio va ta'lim analitikasi esa vaqt davomida yig'ilgan mahsulotlar, jarayon izlari va refleksiyani birlashtirish imkonini beradi ^[21, 22].

Foydalanish imkoniyati va Universal Design for Learning talablari raqamli mahsulot sifatini faqat mazmun bilan emas, turli foydalanuvchilar uchun ochiqligi bilan baholashni talab etadi ^[23, 24].

Adabiyotlar tahlili faol fuqarolik, raqamli fuqarolik, inklyuziv pedagog agentligi va autentik baholash yo'nalishlari rivojlanganini ko'rsatadi. Biroq ularni bo'lajak maxsus pedagog uchun yagona "komponent – mezon – indikator – raqamli dalil – daraja" modelida integratsiyalash zarurati saqlanib qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, aksiologik, inson huquqlariga asoslangan va inklyuziv yondashuvlarga tayandi. Kompetensiyaviy yondashuv kutiladigan natijani real vaziyatda safarbar etiladigan resurslar birligi sifatida belgiladi. Tizimli yondashuv komponentlar, mezonlar, indikatorlar va dalillar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv indikatorlarni talabaning kuzatiladigan qaror va harakatlari orqali ifodalashga xizmat qildi. Aksiologik va inson huquqlariga asoslangan yondashuv qadr-qimmat, tenglik, kamsitmaslik, ovoz va tanlovni baholashning kritik mezonlari sifatida belgiladi.

Modelni ishlab chiqish besh bosqichda amalga oshirildi:

- 1) faol fuqarolik va raqamli fuqarolik konstruktining mazmuniy birliklarini ajratish;
- 2) maxsus pedagogning ta'limiy, konsultativ, koordinatsion, himoyaviy va jamoatchilik bilan hamkorlik vazifalarini xaritalash;
- 3) takrorlanuvchi birliklardan komponentlarni chiqarish;
- 4) har bir komponentni kuzatiladigan indikator va dalil turiga aylantirish;
- 5) mustaqillik, transfer, ta'sir va refleksiya mezonlari asosida to'rt darajali deskriptorlarni ishlab chiqish.

Modelda besh komponent qabul qilindi: fuqarolik-huquqiy, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-ishtirokiy, raqamli-kommunikativ va refleksiv-professional. Ushbu komponentlar umumiy pedagogik kompetensiyalarni takrorlamaydi; ular aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning huquqlari, teng ishtiroki va ijtimoiy subyektligini kasbiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatda namoyon bo'ladi.

Baholash dalillari konstruktga yaqinligi bo'yicha tanlandi. Bilim testi fuqarolik-huquqiy resursni, vaziyatli topshiriq qaror sifatini, keys va loyiha faoliyatli ishtirokni, raqamli mahsulot muloqot va foydalanish imkoniyatini, elektron portfolio esa vaqt davomida o'sish va refleksiyani ko'rsatadi. Platforma faoliyati - kirish soni yoki sahifada o'tkazilgan vaqt - mustaqil kompetensiya dalili sifatida emas, mazmunli mahsulot va qarorlarni tushuntiruvchi yordamchi jarayon ma'lumoti sifatida qabul qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Faol fuqarolik kompetensiyasining besh komponentli tuzilmasi

Komponentlarni ajratish mantiqi "tayanch fuqarolik mazmuni – raqamli fuqarolik faoliyati – professional-inklyuziv vazifa" uchligiga tayandi. Fuqarolik-huquqiy komponent qarorning normativ asosini, motivatsion-qadriyatli komponent uning axloqiy yo'nalishini, faoliyatli-ishtirokiy komponent amaliy ta'sirini, raqamli-kommunikativ komponent dalil va muloqot vositasini, refleksiv-professional komponent esa qaror va natijani qayta boshqarishni ta'minlaydi. Komponentlar parallel ro'yxat emas; ular bitta kasbiy vaziyatda o'zaro ishlaydi (1-rasm).

Fuqarolik-huquqiy	Motivatsion-qadriyatli	Faoliyatli-ishtirokiy	Raqamli-kommunikativ	Refleksiv-professional
Huquq, burch, tenglik va kamsitmaslik	Qadr-qimmat, adolat, empatiya va mas'uliyat	Tashabbus, hamkorlik, loyiha va ijtimoiy ta'sir	Faktcheking, elektron ishtirok, etika va foydalanish imkoniyati	Dalil, teskari aloqa, korreksiya va kasbiy rivojlanish

1-rasm: Bo'lajak maxsus pedagogning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy modeli

1-jadval: Faol fuqarolik kompetensiyasi komponentlarining operatsion tavsifi

Komponent	Mazmuni	Yetakchi funksiya	Kuzatiladigan indikatorlar	Raqamli va autentik dalil
Fuqarolik-huquqiy	Huquq, burch, normativ asos, tenglik va kamsitmaslik.	Kasbiy vaziyatni huquqiy mezon asosida tahlil qilish va qonuniy yechimni asoslash.	Huquq buzilishini aniqlaydi; tegishli normani tanlaydi; qarorni huquq-burch muvozanati bilan izohlaydi.	Bilim testi; situatsion judgment topshirig'i; huquqiy dalil kartasi.



Motivatsion-qadriyatli	Qadr-qimmat, adolat, empatiya, stereotipga qarshi pozitsiya, javobgarlik.	Kasbiy qarorni inson huquqlari va inklyuziv qadriyatlarga yo'naltirish.	Shaxsni tashxisdan ustun qo'yadi; qarorning turli tomonlarga oqibatini baholaydi; tashabbus uchun mas'uliyat oladi.	Qadriyatli dilemma; refleksiv izoh; kuzatuv rubrikasi.
Faoliyatli-ishtirokiy	Tashabbus, hamkorlik, advokatsiya, jamoaviy qaror, loyiha va ta'sir.	Muammoni hamkorlikda hal etish va ijtimoiy o'zgarishga hissa qo'shish.	Manfaatdor tomonlarni xaritalaydi; vazifalarni taqsimlaydi; yechim mahsulotini yaratadi; individual hissasini dalillaydi.	Keys; debat; loyiha; hamkorlik protokoli; ta'sir dalili.
Raqamli-kommunikativ	Axborotni tekshirish, onlayn etika, raqamli xavfsizlik, elektron ishtirok va foydalanish imkoniyati.	Ishonchli, xavfsiz va inklyuziv raqamli muloqotni tashkil etish.	Manbani verifikatsiya qiladi; turli fikrga dalil bilan javob beradi; alt-matn/subtitrlar va o'qiladigan tuzilma yaratadi.	Forum post; faktcheking varag'i; raqamli mahsulot va accessibility chekl-listi.
Refleksiv-professional	Qaror, hissa, xato, teskari aloqa va rivojlanish maqsadini tahlil qilish.	Faoliyatni dalillar asosida korreksiya qilish va tajribani yangi vaziyatga ko'chirish.	Kuchli va zaif dalilni ajratadi; fikr-mulohaza asosida mahsulotni qayta ishlaydi; keyingi harakat rejasini tuzadi.	Elektron portfolio; qayta ishlangan artefakt; refleksiv kundalik; individual reja.

Mezon va ko'p dalilli baholash mantiqi

Komponentning mavjudligi bitta topshiriq bilan isbotlanmaydi. Masalan, talabani huquqiy testdagi yuqori natijasi uning kamsitishga qarshi real pozitsiyasini yoki jamoaviy loyihadagi mas'uliyatini avtomatik anglatmaydi. Shuning uchun har bir mezon kamida ikki turdagi dalil bilan tasdiqlanishi kerak: deklarativ-kognitiv dalil va faoliyat yoki mahsulot dalili. Kritik indikatorlar - qadr-qimmatni buzmaslik, maxfiylik, kamsitmaslik va xavfsizlik - integral ball yuqori bo'lsa ham alohida minimal chegaraga ega bo'lishi lozim.

Raqamli dalilning pedagogik qiymati uning texnik mavjudligida emas, kompetensiyaga yaqinligidadir. Forumdagi post faqat yozuv soni bilan emas, dalilning ishonchligi, qarshi fikrni adolatli ifodalash va netiket bilan; loyiha mahsuloti dizayn jozibasini bilan emas, muammoni hal etishi, auditoriyaga mosligi va foydalanish imkoniyati bilan; portfolio esa fayllar soni bilan emas, tanlangan dalilning relevantligi, refleksiya va qayta ishlash izlari bilan baholanadi (2-jadval).

2-jadval: **Faol fuqarolik kompetensiyasini baholash mezonlari va dalillari**

Mezon	Kuzatiladigan natija	Asosiy dalillar
Huquqiy asoslanganlik	Muammoni huquq, burch, tenglik va kamsitmaslik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.	Test, SJT, me'yoriy manba kartasi, keys yechimi.
Qadriyatli mas'uliyat	Qadr-qimmat va adolatni qaror mezonini sifatida qo'llaydi; oqibat va mas'uliyatni tan oladi.	Dilemma izohi, refleksiya, kuzatuv, o'zini baholash.
Faol ishtirok va ta'sir	Tashabbus ko'rsatadi, hamkorlikni tashkil etadi, mahsulot va natija yaratadi.	Debat, loyiha, stakeholder fikri, individual hissa jurnali.
Raqamli muloqot va foydalanish imkoniyati	Ishonchli axborot, etik kommunikatsiya va turli foydalanuvchi uchun ochiq kontent yaratadi.	Faktcheking, forum, multimedia mahsulot, WCAG/UDL chekl-listi.
Refleksiya va korreksiya	Dalillar va teskari aloqa asosida qaror va mahsulotni takomillashtiradi.	Portfolio, versiyalar tarixi, refleksiv sharh, keyingi qadam rejasini.

Rivojlanganlik darajalari

Darajalarni faqat yig'ilgan ball bilan nomlash konstrukt mazmunini yashiradi. Taklif etilayotgan deskriptorlar mustaqillik, vaziyatning murakkabligi, dalillash, hamkorlik, transfer, ta'sir va refleksiya mezonlari bo'yicha bir xil mantiqda tuzildi. Talaba bir komponentda yuqori, boshqasida past natija ko'rsatishi mumkin; shu sababli integral daraja bilan birga besh komponentli profil ham taqdim etiladi (3-jadval).



3-jadval: Faol fuqarolik kompetensiyasining rivojlanganlik darajalari

Daraja	Integrativ deskriptor	Tipik baholash vaziyati va dalil
Boshlang'ich	Tayyor namuna va doimiy yo'naltirish bilan fakti takrorlaydi; vaziyatdagi asosiy huquqiy yoki etik muammoni to'liq ajratmaydi; raqamli faoliyat fragmentar.	Ko'rsatma asosida sodda topshiriq; reproduktiv izoh; yordam bilan refleksiya.
Bazaviy	Standart vaziyatda tegishli norma va usulni tanlaydi, hamkorlik rolini bajaradi, raqamli xavfsizlik va oddiy foydalanish imkoniyati talablariga rioya qiladi; yangi vaziyatda ko'makka muhtoj.	Standart keys; strukturali forum; tayyor chekl-list asosidagi mahsulot; qisqa refleksiya.
Faol-amaliy	O'zgargan kasbiy vaziyatda huquqiy va axloqiy dalilni integratsiyalaydi, tashabbus va hamkorlikni mustaqil tashkil etadi, foydalanish imkoniyati ta'minlangan raqamli mahsulot yaratadi, teskari aloqa asosida natijani qayta ishlaydi.	Murakkab keys, debat va loyiha; qayta ishlangan mahsulot; dalillangan portfolio.
Tashabbuskor-transformativ	Tizimli to'siqni aniqlaydi, manfaatdor tomonlar bilan original va mas'uliyatli yechim ishlab chiqadi, ta'sir va xavfni oldindan baholaydi, boshqalarning ishtirokini kengaytiradi va tajribani yangi kontekstga transfer qiladi.	Ochiq loyiha yoki advokatsiya tashabbusi; ta'sir dalili; ekspert himoyasi; rivojlanish strategiyasi.

Modelni pedagogik jarayonga tatbiq etish talablari

Birinchi talab - kompetensiya natijalarini o'quv moduli maqsadiga oldindan joylashtirish. Har bir mavzu uchun qaysi komponent, indikator va dalil rivojlantirilishi aniq ko'rsatilmasa, faoliyat ko'p, lekin diagnostik ma'no kam bo'lib qoladi. Masalan, raqamli debatda faqat mavzu bo'yicha bilim emas, manbani tekshirish, qarshi fikrni to'g'ri ifodalash, tinglash va dalil bilan javob berish indikatorlari baholanadi.

Ikkinchi talab - vaziyatlarning kasbiy va inklyuziv autentikligi. Keysda real shaxs ma'lumotlarini oshkor etmasdan, huquq, manfaat, to'siq, resurs va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ziddiyat modellashtiriladi. Talaba birgina "to'g'ri javob"ni tanlamaydi; alternativani solishtiradi, qarorning foyda va xavfini ko'rsatadi, ta'lim oluvchi ovozi yechimga kiritadi.

Uchinchi talab - o'zini baholash, tengdoshlar va o'qituvchi bahosini triangulyatsiya qilish. Talaba rubrikani topshiriqdan oldin ko'radi, faoliyat davomida dalil yig'adi, topshiriqdan keyin o'zini baholaydi va tashqi fikrni qabul qilib, mahsulotni qayta ishlaydi. Platforma analitikasi bu jarayonni ko'rsatadi, biroq yakuniy pedagogik hukmni avtomatik almashtirmaydi.

To'rtinchi talab - raqamli kontent va baholash vositalarining foydalanish imkoniyatini ta'minlash. Matn tuzilmasi, kontrast, alt-matn, subtitrlar, klaviatura navigatsiyasi, tilning aniqligi va muqobil formatlar qabul mezoniga kiritiladi [23, 24]. Bu talab tadqiqot mavzusiga tashqi texnik qo'shimcha emas, faol fuqarolikning teng ishtirok tamoyilini amalda namoyon qiluvchi dalildir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasi besh komponentning integratsiyasida namoyon bo'ladi: fuqarolik-huquqiy komponent qarorning normativ asosini, motivatsion-qadriyatli komponent axloqiy yo'nalishini, faoliyatli-ishtirokiy komponent ijtimoiy harakat va ta'sirini, raqamli-kommunikativ komponent ishonchli hamda foydalanish imkoniyati ta'minlangan muloqotni, refleksiv-professional komponent esa dalil asosidagi korreksiya va kasbiy o'sishni ta'minlaydi.

Kompetensiyani operatsionallashtirishda har bir komponent "mazmun – funksiya – kuzatiladigan indikator – raqamli dalil" zanjiri orqali tavsiflanishi lozim. Bu yondashuv umumiy "biladi" yoki "faol" kabi noaniq belgilarni real baholash harakatlariga aylantiradi.

Baholash bir manbaga tayanmasligi kerak. Bilim testi, situatsion topshiriq, keys, debat, loyiha, raqamli mahsulot, hamkorlikdagi individual hissa, elektron portfolio, refleksiya va platforma jarayon ma'lumotlarini mezonli rubrikalar asosida birlashtirish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich, bazaviy, faol-amaliy va tashabbuskor-transformativ darajalar mustaqillik, murakkablik, transfer, ta'sir va refleksiya bo'yicha tavsiflanadi. Integral daraja bilan birga komponentlar profili saqlanishi, qadr-qimmat, maxfiylik, kamsitmaslik va xavfsizlik kabi kritik indikatorlar uchun minimal chegara belgilanishi zarur.

Taklif etilgan model keyingi bosqichda ekspert bahosi, pilot topshiriqlar, mazmuniy validlik, baholovchilarning kelishuv va pedagogik tajriba orqali tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son¹, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-641-son², 2020-yil 15-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonuni. O'RQ-695-son³, 2021-yil 7-iyun.
5. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York: United Nations, 2006.
6. Committee on the Rights of Persons with Disabilities. General Comment No. 4 (2016) on the Right to Inclusive Education. CRPD/C/GC/4. Geneva: United Nations, 2016.
7. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2015.
8. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vols. 1–3. Strasbourg: Council of Europe, 2018.
9. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. 2004. Vol. 41, No. 2. P. 237–269. DOI: 10.3102/00028312041002237.
10. Choi M. A Concept Analysis of Digital Citizenship for Democratic Citizenship Education in the Internet Age // Theory & Research in Social Education. 2016. Vol. 44, No. 4. P. 565–607. DOI: 10.1080/00933104.2016.1210549.
11. Choi M., Glassman M., Cristol D. What It Means to Be a Citizen in the Internet Age: Development of a Reliable and Valid Digital Citizenship Scale // Computers & Education. 2017. Vol. 107. P. 100–112. DOI: 10.1016/j.compedu.2017.01.002.
12. Jones L. M., Mitchell K. J. Defining and Measuring Youth Digital Citizenship // New Media & Society. 2016. Vol. 18, No. 9. P. 2063–2079. DOI: 10.1177/1461444815577797.
13. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.
14. Pantić N., Florian L. Developing Teachers as Agents of Inclusion and Social Justice // Education Inquiry. 2015. Vol. 6, No. 3. Article 27311. DOI: 10.3402/edui.v6.27311.
15. Florian L., Spratt J. Enacting Inclusion: A Framework for Interrogating Inclusive Practice // European Journal of Special Needs Education. 2013. Vol. 28, No. 2. P. 119–135. DOI: 10.1080/08856257.2013.778111.
16. European Agency for Development in Special Needs Education. Profile of Inclusive Teachers. Odense: European Agency, 2012.
17. Messick S. Validity of Psychological Assessment // American Psychologist. 1995. Vol. 50, No. 9. P. 741–749. DOI: 10.1037/0003-066X.50.9.741.
18. Kane M. T. Validating the Interpretations and Uses of Test Scores // Journal of Educational Measurement. 2013. Vol. 50, No. 1. P. 1–73. DOI: 10.1111/jedm.12000.
19. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // Studies in Higher Education. 2006. Vol. 31, No. 2. P. 199–218. DOI: 10.1080/03075070600572090.
20. Boud D., Molloy E. Rethinking Models of Feedback for Learning: The Challenge of Design // Assessment & Evaluation in Higher Education. 2013. Vol. 38, No. 6. P. 698–712. DOI: 10.1080/02602938.2012.691462.
21. Eynon B., Gambino L. M. High-Impact ePortfolio Practice. Sterling, VA: Stylus Publishing, 2017.
22. Ferguson R. Learning Analytics: Drivers, Developments and Challenges // International Journal of Technology Enhanced Learning. 2012. Vol. 4, No. 5/6. P. 304–317. DOI: 10.1504/IJTEL.2012.051816.
23. CAST. Universal Design for Learning Guidelines, Version 3.0. Wakefield, MA: CAST, 2024.
24. World Wide Web Consortium. Web Content Accessibility Guidelines (WCAG) 2.2. W3C Recommendation. 2023.

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

² <https://lex.uz/docs/-5049511>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5447413>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.